



O'ZBEKISTONDAGI SOLIQ TUSHUMLARINING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

THE ROLE OF TAX REVENUES IN THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN

¹Ibodullayev Abror
Axrorovich,

²Hoshimboyev Nodirbek
Alisher o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, PhD., dotsent.

E-mail: abrribodullayev@gmail.com, ²Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti "Soliqlar va budjet hisobi" fakulteti talabasi.

E-mail: nhoshimboyev@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada soliqlarning iqtisodiy mohiyati, davlat budjetidagi o'rni hamda ularning asosiy funksiyalari o'rganilgan. Soliqlar davlatning asosiy daromad manbai sifatida ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va davlatning konstitutsiyaviy funksiyalarini amalga oshirishda muhim rol o'ynashi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan asosiy soliq turlari, ularning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda 2024-yil statistikasiga tayangan holda soliq tushumlarining o'sish dinamikasi, budjetga jalb etilgan umumiy mablag'lar hajmi va ularning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti tahliliy yondashuvda ko'rib chiqilgan.

Eng. - This article explores the economic essence of taxation, its role in the state budget, and its core functions. Taxes, as the primary source of government revenue, play a crucial role in financing social sectors, ensuring macroeconomic stability, supporting entrepreneurial activity, and fulfilling the constitutional functions of the state. The study also examines the main types of taxes levied on individuals and legal entities, their legal and regulatory framework, as well as the dynamics of tax revenue growth based on 2024 statistics. Furthermore, the analysis includes the total volume of funds mobilized into the state budget and their distribution across various economic sectors.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ soliq, davlat budjeti, soliq tushumlari, ijtimoiy soha, infratuzilma, iqtisodiy barqarorlik, rag'batlantirish, soliq organlari, subsidiya.

❖ tax, state budget, tax revenues, social sector, infrastructure, economic stability, incentives, tax authorities, subsidy.

Kirish.

Soliq — bu davlat budjetiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan majburiy tarzda to'lanadigan to'lov bo'lib, u davlat moliyaviy tizimining asosiy tayanchi hisoblanadi. Soliqlarning asosiy vazifalari — davlat budjetini shakllantirish, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish, iqtisodiy siyosatni amalga oshirish hamda ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirishdan iboratdir.

Soliqlar nafaqat davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qoplash, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, mudofaa, transport va kommunal xizmatlar kabi ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarni moliyalashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, ular iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, soliq-budjet siyosati orqali inflyatsiya va ishsizlik darajasini tartibga solish, shuningdek, investitsiya faoliyatini rag'batlantirish vositasi sifatida ham xizmat

qiladi. Shu nuqtai nazardan, soliqlar jamiyat taraqqiyotining ajralmas va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy instrument sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda amal qilayotgan soliq tizimi to'qqiz asosiy turdagi soliqni o'z ichiga oladi. Bular jumlasiga daromad solig'i, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, ijtimoiy soliq hamda maxsus renta solig'i kiradi. Har bir soliq turi o'zining iqtisodiy mohiyati, undirish mexanizmi va budjetga ta'sir darajasi bilan ajralib turadi. Kelgusida soliq siyosatini takomillashtirish, soliq tushumlarini barqaror oshirib borish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, shuningdek, soliq yuki va imtiyozlar tizimini muvozanatlashtirish orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Richard A. Musgrave soliqlarning iqtisodiyotdagi ta'sirini uchta asosiy funksiyada ifodalaydi: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash [1]. Uning fikricha, soliqlar nafaqat fiskal vosita, balki davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi muhim vosita hamdir.

Joseph E. Stiglitz soliqlarni "iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantiruvchi va ijtimoiy tenglikni ta'minlovchi mexanizm" deb ta'riflaydi [2]. Ayniqsa, samarali soliq siyosati orqali ijtimoiy adolat va iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

A. Jo'raev izlanishlarida soliqlarning davlat budjetini shakllantirishdagi ahamiyati bilan birga, ularni investitsion faoliyatni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ham ko'radi [3].

S. Karimov soliqlarning o'z vaqtida to'lanishi davlat funksiyalarining uzluksiz bajarilishi uchun asosiy shart ekanligini,

shuningdek, soliq yuki muvozanatli bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [4].

Iqtisodchi olim T. Malikov o'z ilmiy izlanishlarida soliqlarni davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishdagi asosiy vositalardan biri sifatida ko'radi. Uning fikricha, soliqlar orqali nafaqat davlat budjeti shakllantiriladi, balki ularning yordamida iqtisodiyotning muhim tarmoqlari qo'llab-quvvatlanadi, ijtimoiy tenglik ta'minlanadi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi. Malikov shuningdek, soliq yukining optimal darajada saqlanishi iqtisodiy faollik va tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq tizimi, uning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqotda Soliq kodeksi va unga oid normativ-huquqiy hujjatlar asosida soliq turlarining huquqiy asosi, undirish tartibi va soliq majburiyatlari o'rganildi. Tahlil jarayonida 2024-yil uchun Davlat soliq qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliqlar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi. Jismoniy shaxslar daromad, mol-mulk va yer soliqlarini to'lashsa, yuridik shaxslar faoliyat turiga qarab boshqa soliq turlarini to'laydi. Soliq tushumlari ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishda muhim manba bo'lib, ularning hisobidan nafaqa, subsidiyalar, ijtimoiy yordamlar ajratiladi. Jumladan, mamlakatimizda "Ayollar daftari", "Temir daftar" va "Yoshlar daftari" kabi dasturlar orqali ehtiyojmand aholi qo'llab-quvvatlanmoqda.

Tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida IT Park rezidentlari daromad solig'i, ijtimoiy soliq va QQSDan ozod etilgan.

Shuningdek, yangi kichik biznes subyektlariga uch yilgacha soliq imtiyozlari beriladi. Bu esa ishsizlikni kamaytirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Soliqlar o'z vaqtida to'lanmasa, davlat budjetida taqchillik yuzaga keladi, bu esa oylik va nafaqalarning kechikishiga, ijtimoiy infratuzilma loyihalarining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Bu muammoning oldini

olish uchun soliq tizimi raqamlashtirilishi va mahallabay yondashuvning joriy etilishi maqsadga muvofiq. Soliq to'lovlarining kechiktirilishi penya qo'llanilishiga, takroriy buzilishlar esa jarima va jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin. Shu bois soliqlarni o'z vaqtida to'lash muhim ahamiyatga ega. 1-jadvalda 2024-yildagi davlat budjetiga tushgan yillik tushumlar haqida ma'lumotlar berilgan.

1-jadval

Soliq organlari tomonidan 2024-yili budjetga undirilgan tushumlar [6]

Soliq turi	Tushum (trln. so'm)	Ulushi (foizda)	2023-yilga nisbatan o'sish (foizda)
Foyda solig'i	52,7	26,4	29,1
Qo'shilgan qiymat solig'i	39,6	19,8	16,4
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	35,4	17,7	18,3
Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq	20,2	10,1	31,8
Aksiz solig'i	17,8	8,9	17,4
Yer solig'i	15,0	7,5	19,2
Mol-mulk solig'i	8,2	4,1	33,5
Aylanmadan olinadigan soliq	6,8	3,4	17,6
Suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliq	2,8	1,4	48,3
Soliqsiz tushumlar (boj, jarima, yig'im va b.)	1,2	0,6	O'sish kuzatilmagan
Jami tushum	199,6	100	20,3

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining 2024-yil uchun budjetga tushumlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini yaqqol ko'rsatmoqda. E'lon qilingan grafik tahlillarga muvofiq, joriy yilda umumiy soliq tushumlari 184,6 trln. so'mni, soliqlarsiz tushumlar, ya'ni bojxona yig'implari 15 trln. so'mni tashkil etib, umumiy hisobda 199,6 trln. so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 20,3 foizga yoki 33,7 trln. so'mga oshgan.

Mazkur o'sish sur'atlari mamlakatda moliyaviy intizomning mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda eng katta ulush foyda solig'idan tushgan bo'lib, uning hajmi 52,7 trln. so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 29,1 foizga oshgan. Eng kichik ulush esa suv resurslaridan foydalanish uchun soliqdan tushgan bo'lib,

uning hajmi 2,8 trln. so'mni tashkil etdi, o'sish sur'ati esa 48,3 foizga teng.

Soliqsiz tushumlardan jami 15 trln. so'm yig'ilgan bo'lib, bu umumiy tushumlarning 7,5 foizini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar iqtisodiy faollikning oshishi, davlatga tushumlarning esa barqaror va diversifikatsiyalashgan shaklda shakllanayotganini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti doirasida ijtimoiy sohalarga, xususan, maktablar, shifoxonalar, xavfsizlik xizmatlari va boshqa sohalarga bepul xizmat ko'rsatish uchun yirik miqdorda moliyaviy resurslar ajratilmoqda. 2024-yil uchun davlat budjeti doirasida asosiy besh sohani moliyalashtirish miqdorlari quyidagicha belgilangan:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi – 46 trln. 647 mlrd. 414,5 mln. so'm;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
– 6 trln. 130 mlrd. 330 mln. so'm;

Sog'liqni saqlash vazirligi – 4 trln. 587
mlrd. 244,7 mln. so'm;

Madaniyat vazirligi – 1 trln. 100 mlrd.
445,3 mln. so'm;

Yoshlar siyosati va sport vazirligi – 1 trln.
768 mlrd. 859,2 mln. so'm.

Ushbu raqamlardan ko'rinib turibdiki, ta'lim tizimida bolalarning bepul o'qishi uchun davlat tomonidan yirik moliyaviy resurslar ajratilmoqda. Mazkur ajratmalar jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar hamda boshqa budjet tushumlari hisobidan qoplanadi. Davlat budjetining taqchillik holatiga tushmasligi, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash uchun subsidiyalarni ajratish, shuningdek, davlat va aholi tinchligini ta'minlash maqsadida mudofaa sohasini moliyalashtirish kabi vazifalar soliqlardan tushgan mablag'lar asosida amalga oshiriladi.

Soliqlarni ixtiyoriy to'lash darajasining yuqori bo'lishi budjet tashkilotlarining moliyalashtirilishini kechiktirmaslikka, ish haqi, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va yordam pullarining o'z vaqtida to'lanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida soliq tushumlari hajmi sezilarli darajada oshib, iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy intizom mustahkamlangan. Bu esa davlat budjetining ijtimoiy yo'nalishlardagi xarajatlarini samarali amalga oshirish imkonini yaratmoqda hamda iqtisodiy faollik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

2024-yilgi rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, davlat budjetiga tushgan mablag'larning katta qismi ijtimoiy sohalarning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lib, eng yuqori ulush maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga ajratilgan. Shuningdek, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, yoshlar va sport sohaslariga ham sezilarli mablag'lar ajratilgan. Bu holat davlat siyosatining ijtimoiy sohalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaganligini ko'rsatadi.

Soliq tushumlari nafaqat ta'lim va sog'liqni saqlashni, balki tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, davlat xavfsizligi, mudofaa va boshqa strategik sohalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Soliq tushumlarining kamayishi davlat budjetida taqchillik yuzaga kelishiga sabab bo'lib, bu esa ijtimoiy xizmatlarning sifatiga va ularning uzluksizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyat farovonligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangi raqamli texnologiyalar, xususan, soliq tizimining avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlari, nafaqat fuqarolar uchun qulaylik yaratib, balki budjet intizomini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Soliqlarni o'z vaqtida to'lagan tadbirkor va fuqarolar uchun imtiyozlar tizimlarini joriy etish soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. *Public Finance in Theory and Practice*. – New York: McGraw-Hill, 1989. – 627 p.
2. Stiglitz J.E. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton & Company, 2000. – 720 p.
3. Jo'raev A. *Moliya va soliqlar: darslik*. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2022. – 436 b.
4. Karimov S. *Soliq tizimi va uning takomillashuv yo'nalishlari*. – T.: "Fan va texnologiya", 2021. – 298 b.
5. Malikov T. *Soliq-budjet siyosati: nazariy va amaliy jihatlar*. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020. – 264 b.
6. <https://gov.uz/oz/soliq>